



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

## ASOSIY MAQSAD – INSON QADRINI YUKSALTIRISH

Ayni kunlarda butun xalqimiz  
2022–2026-yillarga mo'jallangan  
Yangi O'zbekistonning taraqqiyot  
strategiyasini "Insonga e'tibor va  
sifatli ta'limgan yili"da amalga os-  
hirishga oid Davlat dasturi loyihasi-  
da faol ishtirok etmoqda.

Gap shundaki, Prezidentimizning  
bu haqdagi farmoni hamda Davlat  
dasturi loyihasi normativ-huquqiy  
hujjalari loyihalari muhokamasi por-  
talida (<https://regulation.gov.uz/>)  
joylashtirilishi natijasida yurdosh-  
larimiz 7 ta ustuvor yo'naliш, 100  
ta maqdas va 309 ta banddan  
iborat dastur loyihasi yuzasidan  
o'z takliflarini bildirish imkon-  
yatiga ega bo'ldi.

Yodgingizda bo'lsa, dav-  
latimiz tarhabari 2022-yil  
20-dekabrda Oliy Majlis va  
xalqimizga Murojaatnomasida  
2023-yilda "Insonga e'tibor va  
sifatli ta'limgan yili" deb nom berishni taklif etgan va ushu yilda  
amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga alohida e'tibor  
qaratgan edi.

Albatta, bunda eng avvalo, aholining hayot darajasini  
yanada yuksaltirish, ta'limgan sifatini ilg'or jahon standartlariga  
muvoqiflashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda  
kambag'allikni qisqartirish asosiy diqqat-e'tibordagi mas-  
alalardir.

Shundan kelib chiqib, dastur loyihasida:  
inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini  
yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;  
mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini  
taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;  
milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yugori o'sish  
sur'atlari ta'minlash;

adolati ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantir-  
ish;

ma'nnaviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqich-  
ga olib chiqish;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashari  
muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchay-  
trish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish  
yo'naliшlarida yil davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan  
vazifalar belgilanmoqda.

Xo'sh, ushu vazifalar nimalardan iborat?

Avalo, xalqimizning og'irini yengil qilish, yanada qulay-  
liklar yaratish va xarajatlarni tejash maqsadida, 2023-yil  
1-iyuldan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlarida

"Aholi ta'adabirkorlarga servis sifatini oshirish" chora-tadbirlari  
belgilanotganlari alohida aytish zarur. Davlat organlari va  
tashkilotlari tomonidan an'anaviy tarzda ko'rsatilgan  
qo'shimcha 200 ta davlat xizmatlarini Davlat xizmatlari  
markazlari hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali  
orqali ko'rSATISH yo'iga qo'yildi. Shu tarzda elektron shaklda  
ko'rSATIDLIGAN davlat xizmatlari 73 foiziga yetkazildi.

Loyihada ko'ra, idoralararo elektron ma'lumotlar almash-  
inuvi asosida fugarolar kasalligining og'irligi va uning asorat-  
laridan kelib chiqib, ularning ishtirokisiz nogironlik belgilanadi.

Yo'harakati xavfsizligini ta'minlash sohasi "shahar  
automobillar emas, balki piyodalar uchun" g'oyasi asosida  
ishloq qilinadi. Unga ko'ra, joriy 1-iyundan respublikaning  
barcha aholi punktlarida transport vositalari harakatlanish  
tezligini soatiga 70 kilometrden 60 kilometruga tushirish  
taklif etmoqda.

Mazkur masala bugungi kunda juda dolzarb bo'lib, aholi,  
ayniqsa, bolalar xavfsizligi yo'lida bunday qarorga kelish  
o'rinni hisoblanadi. Aslida bugungi kunda yurtimizning ko'plab  
hududlarida, jumladan, Samarqand viloyatida ham o'ndan  
ortiq ko'chada mazkur tarib asosida transport vositalarining  
eng yuqori tezligi 60 kilometruga pasaytirilgan.

Loyihada aholining elektr energiyasiga bo'lgan talabi-  
ni qondirish uchun yangi generasiya quvvatlarini yaratish  
bo'yicha belgilagan chora-tadbirlar viloyatimizga ham te-  
gisli bo'lib, unga ko'ra, Samarqandda Birlashgan Arab  
Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi bilan hamkorlikda  
umumiy quvvati 440 MVtga teng quyosh fotoelektr stansiyasi  
ni qurish ko'zda tutilgan. Quyosh va shamol elektr stansiyalari  
hisobidan qo'shimcha elektr ishlab chiqarish orqali xonadon-  
larga beriladigan elektr energiyasini 50 foizga ko'paytirish  
rejalashtirmoqda. Shuningdek, "Total Energies" kompani-  
yalari guruhi bilan muqobil energiya manbalariiga investi-  
tsiya kiritish bo'yicha muzokaralar olib borilmouqda. Bular

ham albatta, xalqimiz turmush darajasini oshirishga  
xizmat qiladi.

Qolaversa, loyihada joriy yilda yurtimizda turizm  
xizmatlari eksportini 2 milliard dollarga yetkazish  
vazifasi qo'yilgan. Bu borada ham ayni paytda  
mamlakatimizda, xususan, viloyatimizda keng  
ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz  
rahbarining tegishli qarorida "Samarqand –

Yangi O'zbekistonning turizm darvoza-si" targ'ibot kampaniyasini o'tkazish  
belgilangan. Shu maqsadda Samarqand shahrida "Aviation & Logis-  
tics Forum" II xalqaro aviatsiya  
forumi tashkil ettildi. Joriy yilda  
Samarqand jahon turizm tashkilotining  
navbatdagi yig'ilishiha ham  
mezbonlik qiladi, umuman, bu  
yerda yil davomida yigirmadan  
ortiq xalqaro forum va anjumanlar o'tkaziladi. Yangidan bunyod  
etilayotgan Imom Buxorii maj-  
muasi ham shu yilda foydalishga topshirilib, sayyohlarni  
qabul qila boshlashini mammuni-  
yat bilan ta'kidlamoqchimiz. Yangi turizm ko'chalari, turizm  
qishloqlari barpo qilinadi va shunga mos rivojsha infratuzilma  
yaratiladi, xizmat ko'rsatish yo'iga qo'yiladi.

Bularning barchasi Samarqandning turistik salohiyatini  
oshirish, qadimiy kentga keladigan sayyohlarni oqimini ko'pay-  
trishdir, shaharni dunyo taniyidigan megapolisga, xalqaro  
turizm va biznes markaziga aylantirishda ayni muddaodir.

Shuningdek, loyihada Samarqand shahri alohida  
ma'muriy-hududiy birlik sifatida respublika bo'yusunuviga  
o'tkazish chora-tadbirlari belgilangan. Davlatimiz rahbarining  
Murojaatnomada ilgari surjan mazkur tashabbusi, nafaqat,  
viloyatimiz va Samarqand shahri aholisi tomonidan, balki  
butun xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Qadimiy  
shaharga bunday maqom berilishi uning dunyodagi nufuzini  
oshirish bilan birga, yanada taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

Adolati ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlan-  
trish – bu yilgi davlat dasturlaring asosiy yo'naliшlaridan  
biri hisoblanadi. Loyihaga binoan, yil davomida ishsiz va  
ish qidirayotgan shaxslarning 160 ming naftari o'zi istagan  
kasblarga o'qitiladi, 14 ming nafarining kasbi malaka daraja-  
si tasdiqlanadi. Ayni chog'da og'ir ijtimoiy ahvolga tushib  
qolgan 75 ming naftar ishsiz xotin-qiz davlat hisobidan mehnat  
bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitiladi. Bu  
borada viloyatimizda ham rejalar ishlab chiqilib, amaliy ishlar  
bosqab yuborildi. Samarqand shahridagi monomarkaz hamda  
tuman, shaharlardagi kasb-hunarga o'qitish markazlarida  
ishshu fuqarolar yigirdamdan ziyyod kasb-hunarga o'qitilmoqda.

Adolati ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlan-  
trish – bu yilgi davlat dasturlaring asosiy yo'naliшlaridan  
biri hisoblanadi. Loyihaga binoan, yil davomida ishsiz va  
ish qidirayotgan shaxslarning 160 ming naftari o'zi istagan  
kasblarga o'qitiladi, 14 ming nafarining kasbi malaka daraja-  
si tasdiqlanadi. Ayni chog'da og'ir ijtimoiy ahvolga tushib  
qolgan 75 ming naftar ishsiz xotin-qiz davlat hisobidan mehnat  
bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitiladi. Bu  
borada viloyatimizda ham rejalar ishlab chiqilib, amaliy ishlar  
bosqab yuborildi. Samarqand shahridagi monomarkaz hamda  
tuman, shaharlardagi kasb-hunarga o'qitish markazlarida  
ishshu fuqarolar yigirdamdan ziyyod kasb-hunarga o'qitilmoqda.

Joriy yilda farzandlarimizning sifatli ta'limgan olli-  
shi ham asosiy e'tibordagi masalalardan biriga aylanadi.  
Jumladan, bolalarni maktabgacha ta'limgan bilan qamrabi olish  
ko'lamlini oshirish orqali qamrovni 99 foizga yetkazish ko'zda  
tutilgan. Shu maqsadda maktabgacha ta'limgan muqobil  
shakllari joriy etiladi. "Namunaviy maktab" loyihalari ijroga  
qaratilib, yangi maktablar qurish, rekonstruksiya qilish ishlari  
ko'lami yana da kengayadi.

Bunday egzu sa'y-harakatlar olyi ta'limgan tizimida ham amal-  
ga oshirilib, viloyatdagi universitet va institutlarda yangi o'quv  
binolari va laboratoriylar bonyod etiladi. O'nga yaqin talaba-  
lar turarjoyolari quriladi.

Loyihada milliy madaniyatimiz va san'atimiz keng targ'ib  
qaratilgan xalqaro madaniy tadbirlarni o'tkazish

yuzasidan ham qator vazifalar belgilangan. Jumladan, pan-  
demiya sababli to'xtab qolgan "Sharq taronalari" xalqaro  
musiqa festivalini joriy yilda o'tkazish rejalashtirilgan.

Umuman, hujjat loyihasida sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat  
ko'rSATISH va servis sohalarini rivojlantrish, mahallalar infra-  
tuzilmasini yaxshilash, aholiga ko'rSATILAYOTGAN tibbyi xizmat  
sifatini oshirish, energiya resurslaridan samarali foydalinish,  
ekologik muammolarning oldini olish, "yashil" texnologiyalar-  
ni keng qo'llash va boshqa sohalarga doir chora-tadbirlar  
yil dasturi asosini tashkil etib, mamlakatimizda "Inson qadri  
yuksaltirish" tamoyili hayotda o'z ifodasini topishi uchun dasturila-  
malga aylantirish.

Shu o'rinda aytish kerakki, muhokama davomida bildiril-  
adigan takliflar, albatta, inobatga olinadi. Ana shunda davlat  
dasturi biz kutgandek xalqchil va muqammal hujjatga ayla-  
nadi. Zero, asosiy maqsad inson qadrini ulug'lashdan  
iboratdir. Shu ma'noda, barcha yurdoshlarimiz, jumladan,  
samarqandliklarni muhokamalar jarayonida yanada faol  
bo'lishga chaqiramiz.

Erkinjon TURDIMOV,  
viloyat hokimi,  
Oliy Majlis Senati a'zosi.

2023-yil 11-fevral, shanba,  
17 (23.738)-son

KUN  
HIKMATI

Pandu nasihat va  
ma'ruba bo'lib, shaxsiy  
ibratga o'tish vaqtiga  
keldi. Faqat yur  
betlab, bu egzu  
ishni boshlaydiganlar  
topilishi kerak



## NAVOIY MEROSI – INSONIYAT BOYLIGI

Samarqandda she'riyat mulkining sulton  
Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligi keng  
nishonlandi. Kecha shahardagi shoir nomi  
bilan ataluvchi markazi istirohat bog'i  
ortalabdan davlat va jamoat tashkilotlari  
vakillari, professor-o'qituvchilar, yozuvchilar,  
shoirlar, talaba va o'quvchilar bilan  
gavjum bo'ldi.

Bog' markazida o'rnataligan Alisher Navoiy haykali poy-  
ida o'tkazilgan tadbirda buyuk bobokalonimizning hayoti,  
boy madaniy merozi va bugungi kunda yoshlar tarbiyasi-  
dagagi o'rni xususida fikr yuritildi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari F.Toshev,  
X.Bobomurodova, Samarqand davlat universiteti profes-

sori E.Musurmonov buyuk mutafakkir ijodiy merozi haqida  
so'z yuritdi.

- Hazrat bir muddat bo'lsa-da, Samarqandda yashab,  
ijod qilgani bizga faxi bag'ishlaydi, - deydi Samarqand  
iqtisodiyot va servis instituti prorektori Azizjon Berdimur-  
odov. - Shuningdek, Navoiy asarlar nafaqat bizning,  
balki butun dunyo xalqolaring bebabu ma'naviy merozi  
aylangani quvonarlardir.

Tadbirda Navoiy g'azal va ruboysiidan namunalar  
o'qildi. Hazrat Navoiy Samarqandda yashagan vaqtida  
voqealar aks ettirilgan sahna ko'rinishi namoyish etildi.  
Shoir haykali poiyiga gullar qo'yildi. Tadbirda Samarqand  
shahridagi Konserz zalida badiyi kecha bilan davom etdi.

Zulxumor ASHUROVA,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Samarqand davlat tibbiyot universitetida Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligiga bag'ishlab tibbiy pedagogika, olyi  
hamshiralik ishi va xalq tabobati fakultetlari tomonidan adabiy kecha uyshtirildi.

Nurali OCHILOV,  
fakultet dekanı o'rinnbosari.

Samarqand viloyati hokimining QARORI

## Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq sakson birinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi  
O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-mod-  
dasiga asosan QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining  
oltinchi chaqiriq sakson birinchi sessiyasi  
2023-yil 17-fevral kuni saat 10:00 da  
chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar  
kiritilsin:

- viloyat prokuror J.Hatamovning viloyat  
prokuratura organlari tomonidan 2022-yil  
ning II yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar  
yuzasidan hisoboti haqida;

- viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i  
R.Mamatovning 2022-yil davomida viloyat-  
da jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va  
huquqburzilka qarshi kurashish borasi-  
da olib borilgan ishlar yuzasidan hisoboti  
to'g'risida;

- viloyatda 2022-yilda norma ijodkorli-  
gi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati  
yuzasidan viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i  
S.Nuriyevning axboroti to'g'risida;

- viloyat moliyaviy nazorat boshqarmasi  
boshlig'i A.Xatamovning boshqarma tomonidan  
viloyatda 2022-yilda budget intizomini ta'min-  
lash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasi-  
dan hisoboti to'g'risida;

- viloyat mahalliy budjetining qo'shimcha  
manbalardan foydalishni to'g'risida;

- davlat va jamoat ehtiyojlar uchun yer  
uchastkasining olib qo'yilishiha ruxsat berish  
to'g'risida;

- viloyat hokimining ayrim qarorlarini tas-  
diqlash to'g'risida;

- tashkiliy masala.







# TELEFON SABAB

## ajrashayotganlar bor

Aslida juda ko'p oilaviy janjallarni tahlil qilganimizda hammasi mayda, arzimas gaplardan boshlanganini kuzatish mumkin. Kichik gap-so'zlar, bir-biriga nisbatan hurmatsizlik, tez-tez "men-sen"ga borish katta janjallarga sabab bo'immoqda.

FHDYO bo'limlari qoshida tashkil etilgan yoshlarni oilaga tayyorlash maktablarida nikoh-iunuvcilar bilan suhbatalashlar ekanmiz, ularning aksariyati hayotga juda yengil qarayotgani sezamiz. Turli soha xodimlari ishtirokida o'tkazildigan mashg'ulotlar davomida yoshlar olibadagi o'zaro mas'uliyat, burch kabi gaplarni birinchor eshitayotganini tan olishadi. Vaholanki, bu oddiy, oilda aytishli lozim bo'lgan fikrlar.

Ba'zi yoshlar esa to'ygacha faqat yaxshi jihatlarini ko'rsatib, to'dan so'ng arzimas gaplar uchun ajrashaman, deb turib olishi, ammo vaqt o'tgach, bundan nechog'lik afsuslanishlariga ham guvoh bo'lganmiz. Ayniqsa, keyingi paytlarda telefon tufayli kelib chiqayotgan janjallarni alohida ta'kidlashni istardim. Telefon orqali kelin yoki kuyovning yozishmalaridan xabardor bo'lib qolish, shuning ortidan kelib chiqayotgan janjallar ham ba'zi yoshlarning endi boshlangan oilaviy hayotiga raxna solmoqda.

Bularning ortida oila atalmish muqaddas dargohga juda yengil munosabat bor. Shuning uchun farzandlarimizni to'yga emas, oilaviy hayotga tayyorlashga ko'proq e'tibor berishimiz kerak.

Gulandom IBRAGIMOVA,  
Samarqand shahridagi 4-FHDY bo'limi mudirasi.



Co-funded by the  
Erasmus+ Programme  
of the European Union

So'nggi o'n yillikda respublikamizda oliy ta'lim sifatini oshirishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi va muhim qarorlar qabul qilindi. Ayniqsa, xorijiy ilg'or tajribani o'rghanish va o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishning keng yo'iga qo'yilishi oliy ta'limning ahamiyati hamda xalqaro hamkorlikni jadal rivojlantirishdagi rolini yanada oshirdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktobrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida oliy ta'limni rivojlantirish strategiyasi bayon etildi va oliy ta'lim muassasalarining asosiy maqsadlariga aniqlik kiritildi. Bundan tashqari, oliy ta'lim tizimining investitsiyavi jozibadolrigini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida respublika oliy ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirish, ilg'or xorijiy tajribani chiqur o'rganish va tahil qilish asosida ta'lim dasturlarini jahona tan olingen xalqaro standartlar talablariga mo'slashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqqish vazifalari belgilandi.

Belgilangan vazifalar doirasida bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi homiyligidagi AgroDev loyihasi



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali yuqori malakali professor-o'qituvchilarni quyidagi kafedralardagi lavozimlarga tanlov asosida

## ISHGA TAKLIF ETADI

T/r	Lavozimlar va fanlar nomi	O'rinalar soni
1	<b>Dotsent</b> (Moliyaviy hisob, moliyaviy hisobot muammolari, ichki audit)	1 nafar
2	<b>Dotsent v.b.</b> (Bank ishi va moliya asosları, bank ishi, banklarda moliyaviy hisob)	1 nafar
3	<b>Professor v.b.</b> (Moliya va soliqlar, soliqlar va soliqqa tortish, sug'urta ishi)	1 nafar
4	<b>O'qituvchi</b> (Rus tili)	1 nafar
5	<b>O'qituvchi</b> (Ingliz tili)	1 nafar
6	<b>Assistant</b> (Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha)	1 nafar
7	<b>Assistant</b> (Tijorat banklari, bank va moliya bozorlari)	1 nafar
8	<b>Assistant</b> (Soliqlar va soliqqa tortish)	1 nafar
9	<b>Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i</b> (Olyi ma'lumotli, rus, ingliz va nemis tillarini bilishi lozim)	1 nafar

Arizalar gazetada e'lon chop etilgan kundan boshlab, bir oy muddatgacha qabul qilinadi.

Nomzodlar zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi shart. Ilmiy daraja va unvonga ega bo'lish, chet tilini yaxshi o'zlashtirganlik tanlovda ustunlik beradi.

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar batafsil ma'lumot olish uchun filial xodimlar bo'limiga murojaat qilishlari mumkin.

**Manzil:** Samarqand shahri Professorlar ko'chasi, 51-uy.

**Telefon:** +99890-604-72-82.

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Zaripova Sayyora Sharipovnaga (2020-yil 13-yulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Nodirabegin ko'chasi, 5/1-uy.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortigboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Abduraxmonov Vahob Ergashevichga (2021-yil 26-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortigboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Iстиқол ко'часи, 73-uy.

\*\*\*

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabay Bolbekovich notarial idorasida marhum Amirkulov Kaxramonga (2022-yil 15-dekabrdab vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Nodirabegin ko'chasi, 5/1-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Ashurova Salomatga (2021-yil 2-sentabrdab vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Nodirabegin ko'chasi, 5/1-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriyoyevna notarial idorasida marhum Shakirova Sharofatga (1992-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriyoyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Abdushukurov Odil Rabbimovichga (2022-yil 26-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

\*\*\*

### BEKOR QILINADI

Sotuvchi Radjabov Shodmonjon Rabbimovich va sotib oluvchi Sadikova Marxabolar o'rtasida Samarqand shahri Sh.Rashidov ko'chasi, 100-uyda joylashgan do'kon uchun tuzilgan, Samarqand viloyat yeri tuzish va ko'chmas mulk kadastri davlat korxonasidan 2001-yil 9-fevralda tasdiqlanganda 194 raqamli oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



## QISHLOQ XO'JALICI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH



bog'liq holda o'qitish" mavzusida mahorat darsi o'tilib, ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarini amaliyotga bog'liq holda o'tishda keys-stadilaridan keng foydalanshing ahamiyati tushuntirildi. Shuningdek, mazkur oliy o'quv yurti professori Christopher High tomorrowidan filial talabalarini, ilmiy tadqiqotchilarini ishtirokida "Barqaror rivojlanish hamda qishloq turmush tarzi" mavzusida seminar-trening tashkil etildi.

Yana bir maqsadli tashriflardan biri Avstriyaning "Hilforsk international" xalqaro tashkiloti vakili Mirzoravshan Qobilov ishtirokida bo'lib, organik mahsulotlar hamda Global GAP standarti talab va normativ qoidalari yuzasidan ma'ruza qilindi. Xuddi shunday Polshadan kelgan Machiej Chowaniak ma'rurasida ushu standard talablarini, uni amaliyotga tabtiq etishning afzalliklari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uchun standartni sertifikatlash jarayonlarida belgilangan me'yorlar to'g'risida ma'lumotlar yuzasidan.

Bundan tashqari, kelishuvlarga asosan Yevropa hamkor universitetlariidan ham filialga tashriflar amalga oshirildi. Latvianing professori Anita Blij, Sanita Sazonova, Tatyana Kince, Jelena Zagorskalor tomonidan TDIU Samarcand filiali "Agrobiznes va investitsion faoliyat" ta'llim yo'nalishi talabalariga "Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash texnologiyasi", "Oziq-ovqat xavfsizligi" mavzularida darslar o'tildi. Darslar mobaynida mutaxassislar O'zbekistonda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifat va xavfsizlik ko'shatichilarini yaxshilash, eksport geografiyasini kengaytirish, shuningdek, mammakatimizning organik mahsulot ishlab chiqarish salohiyatidan yana to'laroq foydalishim imkoniyatlarini oshirish borasidagi fikrlarini bildirishdi.

Linnes professori Heiko Fritzing filialga tashrifi davomida professor-o'qituvchilarga "Keys stadi topshiriqlarini Geo indikatorga

Filial professor-o'qituvchilari Farhod Ahrorov va Iroda Baymuradovalar mualifligida Shvetsiyaning oliy ta'limni boshqarish hamda Latvianing agroturizm bo'yicha tajribasi va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari haqida 2 ta ilmiy maqola chop etildi.

Olib borilgan uchrashuvlar natijasida filialda talabalarning o'quv yuklamasi bilan Shvetsiyaning kredit-modul tizimini solishtirish, o'qitishda Global GAP tamoyillarini qo'llash, o'quv jarayonida mustaqil va gurdusha ishlash muhitini yanada yaxshilash, raqamli o'qitish usullaridan ko'proq foydalish, kafedralarda akademik erkinlikni kuchaytirishga ko'proq e'tibor berilishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi va ishloq qilinmoqda.

Oliy ta'limni rivojlanish, ta'lim sifatini oshirish borasida loyiha a'zolari bo'lgan O'zbekiston agrobiznes assotsiatsiyasi, O'zbekiston Agro axborot-innovatsiya markazi bilan "Universitet-fan-sanoat" doirasidagi hamkorliklari ni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish uchun mutaxassislar tayyorlashni maqsadli belgilash va dual ta'limni joriy etish maqsad qilinmoqda. Bu esa lejajakda talabalar tadbirkorligini rivojlanish maqsadida startaplar, innovatsion loyhalar qilishga ijobji turki bo'imoda.

Xalqaro oliy ta'lim muassasalarini bilan o'zaro hamkorlik milliy ta'lim tizimining sifati oshishida, sohalar bo'yicha yetuk kadrler tayyorlash, ularning malaka va ko'nikmalarini rivojlanishda o'z samarasini ko'rsatishda.

AgroDev grantining TDIU Samarqand filiali jamoasi.



# USTOZ IBRATI - HAYOT HIKMATI


O'zbekiston Sudyalar oliy kengashi xayrli ishni boshladi. Mamlakatimiz huquqiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, hayoti, faoliyati, turmush tarzi bosh-qalar uchun ibrat bo'lgan huquqshunoslar haqida turkum kitoblar chiqarayapti. Chunki bu hayot maktabidan ko'plarni boxabar qilish birinchingan, ezzulik targ'iботи bo'lsa, ikkinchidan, ezzulikning rag'batini hisoblanadi. Mushtariylar Hadicha Sulaymonova, Mamlakat Vosiqova, Halima Muhibdinova singari fidoyi huquqshunos ayollar faoliyati haqidagi "Uch mashhur o'zbek ayoli" kitobidan xabardor. Turkumning navbatdagisi Samarqand farzandi Alisher Mardiyevga bag'ishlangan va u "Munosib yashamoq baxti" deb nomlangan.

Ushbu kitobning O'zbekiston Sudyalar oliy kengashida taqdirmoti o'tkazildi. Unda el tanigan huquqshunoslar, huquqshunos-olimlar, davlat va jamaot arboblari ishtiroy etib, Alisher Mardiyevning O'zbekiston huquqshunligi yo'lidagi fidokorona xizmatlarini misollar bilan ta'kidlab o'tdilar.

Biz quyida O'zbekiston Respublikasi Bosch prokuraturasi faxriysi Erkin ABZALOVning fikrini hukmingizga havola etamiz:

- 1985-yilda men Samarqand viloyat prokurorining birinchi o'rinnisiga tayinlandim. Birinchi ish kunim hech esidman chiqmaydi. Chunki o'shanda men viloyat sudining raisi Alisher Mardiyevga o'zimni tanishirib, ustozning duolarini oldim. Ishni prokuraturadan boshlagani uchun ham bu odam menga kasbimning eng nozik jihatlarini xuddi yaqin odamidek tutib tushuntirdi.

O'shanda sobiq sovet tizimining respublikamizga nisbatan "paxta ishi", deb boshlagan jinoyatkorona xuruxi haqida barchamiz taassurotga egamiz. Men ham ana shu jarayon ichida edim. Garchi qil ustida turib ishlagandek sezsak-da, prokuratura ham, sud ham ishlarni odilona ko'rishda o'ziga jasorat topa oldi.



Jinoyatchi deb topilgan va zo'rma-zo'raki tergov qilin-gan, aysi bo'yiniga majburan qo'yilgan kishilar sud zaldidan ozod qilindi. Ba'zi hollarda sundlavnichiga belgilangan jazolar qamoq bilan bog'liq bo'lmaganligi sababli ozodlikdan mahrum etilmadi. Natijada bunday ishlar uchun markazdan yuborilgan prokuratora rahbarlari hatto keskin norozilik bildirgan paytlar bo'ldi.

Biroq, ana shunday paytda ham Alisher Mardiyev xolisona va bosiqlik bilan xulosa chiqardi. Chunki ularga baqirib-chaqirish befoya ekanligini bilardi. Shu masala bilan huzuriga kirganimda u kishi past ovozda "Uka, shoshmay turing, hali shunday davrlar kelib, bu huquqiy o'zi-bo'larchilik va uning rahnamolari o'z jazosini



oladi", deb aytgan. Esimda, viloyat sudining rayosatida respublika Oliy sudining raisi, birinchi o'rinnisiga, respublika prokurorining o'rinnisiga, hatto respublika prokuratori A.Buturlin imzolagan nazorat tartibidagi protestlar ham rad qilingan hollar bo'lgan. O'shanda norozi tomonlarga ham A.Mardiyev isbotlab bergan, uning dalillariga qarshi gap topa olishmagan.

O'tgan davrning 1989-1992-yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashdi, uyushgan jinoyatchiлик, terroristik va ekstremistik harakatlar natijasida minglab fuqarolarning konstitusyon huquq va manfaatlariga ziyan yetkazildi. Qirg'izistonda O'sh viloyatining O'zkent tumani, Farg'on va qo'shishining Namangan shahri, Bo'ka, Parkent tumانlаридаги оммавиyyat tartibsiyliklardan hammamiz xabardormiz. Buning ustiga

mamlakat parlamentining ayrim vakillari o'zlarining g'ayriqonuniy harakatlari bilan aholining siyosiy ongini chalg'itishga urindi.

Ana shunday o'ta murakkab bir sharoitda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'sratganda yurist Alisher Mardiyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni davlat huquqiy organlari bo'limi mudiri sifatida mamlakat miyosida huquqni muhofaza etuvchi barcha idoralar faoliyatini muvofiqlashtirishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish jarayonida o'zini ko'srata oldi. Vaziyat keskinlashgan hududlarga shaxsan borib, huquq-tartibot idoralarini rahbarlari bilan bamaslatish ish ko'rdi.

Qashqadaryo viloyati hokimining birinchi o'rinnisiga lavozimida ishlagan paytimda 1994-yil 22-iyul kuni Bosh vazir raisligida Vazirlar Mahkamasi yig'ilishi bo'ldi. Respublika Adliya vaziri Alisher Mardiyev sud hokimiyati moddigi texnik ta'minotini yaxshilash masalasida gapirdi va sud hukmi bilan davlat foydasiga musodara qilingan avtoulovlarining bir qismini sudyalar ichtiyoriga berishni taklif etdi. Men bunday mashinalar moddigi ahvoli yaxshi bo'lmagan tumanlar prokuratorlariga ham berilishi kerakligini aytdim. U kishi taklifimni ma'qulladi.

Undan keyin ham men ustozning sohadagi faoliyatidan ibrat oldim. Chunki bizning tizimda uzoq vaqt bu qadar sabot va qat'iyat bilan ishlash, hamkasblar hummatini qozonish har kimning qo'lidan kelavermaydi.

Kitob taqdimoti chog'ida ustozlardan Alisher Mardiyev haqida aytligan barcha iliq mulahazalaridan g'ururlandim. Har bir inson uchun xalqiga, Vataniga, kasbiga, qolaversa, otanasi nomiga munosib yashash eng katta baxtdir. Alisher aka ana shu noyob baxtgaga musharraf insonlardan.

## TARBIYA VA OBRO'NING ASL ILDIZI NIMADA?

Yoxud ma'nnaviyatimizga bir nazar

**Tarbiya insonning inson bo'lib yashashida juda katta ahamiyatga ega. Shu tufayli haqiqatda yaxshi fazilati, jamiyatga foydasi tegadigan, kamtar insonlarni tarbiya ko'rgan odamlar qatoriga qo'shib gapirishadi. Bunday odamlarga nisbatan "Bu odam tarbiya ko'rgan" yoki "tarbiyalisi" so'zleri ishlatalidi. Demak, bu odamning harakati, qilayotgan ishlari, muomalasi, jamaot o'rta-sida o'zini tutishi hammaga ma'qul. Birorta harakati bata birovlarning dilini og'ritmaydi. Gaplari ham ibratlari bo'lib, boshqalarni beixtiyor tarbiyalaydigan bo'ldi.**

Bugun davralarda odamlarning suhabatida "zamon o'zgarib, tezlashib, bolalarimiz tarbiysi buzilib boryapti", degan gaplarini ham eshitib qolamiz. Aslida bunday holatga bugungi tarbiya sabab bo'imoda. Tarbiyaga hamma oilada ham yetarlicha ahamiyat berilmayapti. Ota-onasi ishda, bolasi birovning qo'li-da. Bular ota-onasi mehrisiz qanday tarbiyalanadi? Hozir maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrov kengaymoqda. Ammol bura yerda bolalarimiz kim tarbiyalaypti? Shu tarbiyachilarining tarbiya darajasi talabga javob beradimi, ularda tarbiya ilmi qay darajada? Umuman, bola oilada olmagan tarbiyani maktabda ola bilmaydi.

**Tarbiyaning ildizi qayerda?**  
Har bir inson yoshidan qat'i nazar, bugun qanday bo'lsa, shunday tarbiyalangan. Agar kishiga nisbatan bu "tarbiyalisi" degan ibora ishlataligan bo'lsa, uni xuddi shunday tarbiyalashgan. Kim bolasini halol luqma bila o'stingan bo'lsa, bu bolaning tarbiyasi-da nuqsonlar kum uchraydi. Demak, **tarbiyaning asl ildizi haollik yotibdi**. Halollik esa faqat shaxsiz ibrat orgali shakkalanadi.

Bolaning **qanday odam bo'lishi faqat oiladagi tarbiyaga bog'liq**. Agar u iqtidori bo'lsa-ya oilada ota-onadan to'g'ri tarbiya topmasa, uning qarashasi qanday muhitda kimlarning orasida yashayotganligiga bog'liq bo'lib qoladi. Agar u o'g'rilas galasiga tushib qolsa, "iqtidori" o'g'ri bo'lib tarbiyalanadi va shunday yetishadi. Shu tariqa jamiyat bitta insonni shu jamiyat zarariga ishlaydigan qilib ulg'aytiradi. Birorta kishini e'tibordan chetda goldirib, tarbiyani bitor vaqt yoki bitor bolaga nisbatan susaytirib bo'lmaydi.

Sa'diy Sheroziy aytganidek, "Agar tarbiya ko'rmasa odam, eshak bo'lib qolur yuzga kirsa ham". Demak bola hali yoshda, kattarsa yaxshi bo'lib qoladi, degan xato fikrda yiroq bo'lishimiz kerak.

**Ota-onasi bolani birinchi galda o'zini biladigan, o'zini o'rgan-gan, o'zining kimligiga o'zi baho bera oladigan qilib tarbiyalashi lozim. Bejiz "O'zini bilmagan odam, o'zgalarni na bilsin", deb**



aytilmaydi. O'zini bilgan odamda kibr, o'zini boshqalardan ustun qo'yish, hasad kabi illatlar bo'lmaydi. Bu illatlardan yiroq bo'lgan odamlar hamma joyda o'zining o'rnnini biladi, mas'uliyatni his qilib yashaydi.

Tarbiyaning haqiqiy darajasiga yetishi uchun tarbiyachi **tarbiya ilmidan** ham xabardor bo'lishi kerak. Tarbiya ilmi juda keng qamrovli bo'lib, u o'z ichiga **ruhiy, jismonyiy va aqiliy tarbiyalarini** qamrab oladi. Insonga birinchi galda ruhiy tarbiya kerak. Shu yo'nalishda imyon-e'tiqodning nimaligini anglab boradi. **Ruhiy tarbiyaga** juda katta ahamiyat berish lozim ekan. Chunki, insonning tanasi bu foni duningda insonga xizmat qiladi. Rohati ham, azobi shu sunyoda.

Tarbiyaning navbatdagi yo'nalishi har qanday inson **jismonyiy jihatdan ham tarbiyalangan** va qo'lidan jismonyiy ish qilish keladigan bo'lishi ham kerak. Jismonyiy jihat-dan tani-jonining sog'lig'i uning imkoniyatidani, kuchidan dalolat beradi. Aqliy va ruhiy tarbiyani mukammal qilish uchun ham jismonyiy jihatdan sog'lim bo'lish lozim. Shu bilan birga, tarbiyaning eng muhim yo'nalishlaridan bira **aqiliy tarbiyadir**. Insonning obro'si oshishida, jamiyatda o'z o'rningning topishida aqiliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Chunki odam aqil bilan olamda sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan hodisa va jarayonlarning mazmun-mohiyati ni o'rganib, tushunib, lozim bo'lgan holatlarda boshqarib boradi.

Tarbiya shunday ahamiyatli jarayonki, bu haqda Abdulla Avloniy ta'kidlab aytadi: "Tarbiya bizlar uchun yo'hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat mas'alasidur". Yaponiyada boshlang'ich sinflarga toki oltinchi sinfga-

**Gazetamizning faol mualliflaridan biri, taniqli ziyoli Mamayunus Pardayev 75 yoshiga to'ldi. Domlani tabarruk yoshi bilan tahririyat va mushtariylar nomidan chin ko'ngildan tabriklaymiz.**

cha "Axloq tomon yo'li" dasturi ostida dars o'tishar ekan. Bunda o'quvchilar faqat axloq va kishilar bilan muomalani o'rganishar ekan. Ko'rinib turibdiki, ularda maktabdagisi yoshlarga yondashish "Ta'lim va tarbiya" emas, balki "Tarbiya va ta'lim" prinsipi asosida amalga oshirilishi ekan.

Tarbiya bilan bog'liq bo'lgan inson uchun o'ta zarur fazilatlaridan bira obro'dir. **Obro'ning asl ildizi** ham birinchi galda insonning tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Jamiyatda halol mehnat qilib, insonlardan yaxshilinkini ayamaydigan kishilarning jamaot o'tasida obro'yi oshib boraveradi. Obro' shunday ne'matki, uni sotish ham, sotib olish ham mumkin emas ekan. Ammo atrofimizda hasadgo'ylar ham yo'q emas. Ular obro'li odamga hasad qilib, uning obro'sini to'kishiga harakat qilaveradi, turli naq'malar va g'irromliklarni ishga solaveradi. Ma'lum bir kichik davrada bu g'alamistar o'z maqsadiga erishishi mumkin, lekin yaxshi odamning obro'sini to'ka olmaydi. Chunki yaxshi odam o'z prinsiplaridan chekinmaydi.

Obro'li bo'lish **birinchi** galda odamning o'ziga bog'liq. Buning uchun u o'zini tarbiyalaydi. Buni saqlab qolish uchun tizimli ravishda hushyorlik bilan o'z ustida shug'ullanib boradi. **Ikkinchidan**, u oilasining obro'sini asrashi ham lozim. Agar oilada birorta tarbiyasi buzuqrog'i bo'lsa, butun oilani yomon otli qiladi. Ushbu oila bilan do'stlashish, quda-anda bo'lishdan ham hazar qili-shadi. **Uchinchidan**, mehnat jamoasining obro'si bugungi keskin raqobat sharoitida o'ta muhim. Shu tufayli har bir xodim o'zining mehnat jamoasining mavqeini ko'tarish ustida ham bosh qotirish, unga erishish uchun tizimli harakat qilishi lozim. **To'rtinchidan**, har bir inson yashagan hudud va Vatanining obro'li bo'lishiga ham mas'ul. Hozirgi zamonda Chingiz Aytmov deyilsa, odamlar Qirg'izistondi ko'z oldiga keltiradi. Rasul Gamzatov deganda esa Dog'iston ko'z o'ng'imbizga keladi. Bu insonlar millat va Vatan obro'sini ko'targan insonlardir.

Imom Buxoriyin muslimon olamida kim bilmaydi? Alisher Navoiyni kim tan olmaydi? Amir Temur, Manguberdi deyilsa, kimni tasavvur qilamiz? Albatta, O'zbekistondi, o'zbek millatini. Bular kabi Vatan va millat fidoyilar millatni dunyoga tanitgan insonlar.

Tarbiya mukammal bo'lsa, har bir shaxs o'ziga tashxis qo'yana olsa, o'z aqli bilan o'zini boshqarsa, bunday insonlar o'zlarini juda erkin qiladi. Agar erkin odamning tani joni sog' bo'lib, ko'ngli xorijani bo'lsa, asl baxtli inson aynan shulardir.

Ko'rinib turibdiki, tarbiya va obro'ning asl ildizi halollik ekan.

Halollikdan unan chiqqan nihol vaqtli kelib juda katta hosil beradi-gan daraxt bo'ldi. Bu hosil shu tuproqda o'sgan barcha aholini boqadi. Shu tufayli o'zining ham, Vatanining ham, millatining ham obro'si oshib boraveradi.

**Mamayunus PARDAYEV,**  
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,**  
**iqtisodiyot fanlari doktori.**

### NEGA ZILZILA HALOKATLI BO'LDI?

Turkiyaning Gaziantep hududidagi zilzila kuchi 7,8 ballni tashkil etdi. Bu esa magnituda shkalasi bo'yicha halokatlari deya baholanadi. Uning epitsentri nisbatan sayoz - yer ostida taxminan 18 kilometr churqurlikda joylashgan bo'lib, bu yer yuzasida katta vayrongarchiliklarga olib kelgan.

"So'nggi 10 yil ichida faqat ikkiti va undan oldingi o'n yilda yana to'rtta shunday kuchi zilzila bo'ldi", deb tushuntiradi London xavf va ofatlarini kamaytirish instituti rahbari, professor Joanna For Uoker.

Qolaversa, bu hududda so'nggi 200 yil ichida kuchi zilzila kuzatilmagan, shu bois tayyorgarlik darajasi mutazam yer silkinishiga o'rganib qolgan hududlarga qaraganda pastroq.

### YER QIMIRLASHIGA SABAB NIMA?

Yer qobig'i bir-biriga mahkam bositgan tektonik plitalaridan iborat. Ko'pincha plita silijy boshlagach Plita bilan ishqalanish yuzaga keladi. Bosim kuchayib boradi, bir plastinka to'satdan joyidan siliji va yer sirtini harakatga keltiradi.

Yuz bergen hodisada shimolga qarab harakatlanayotgan arab tektonik plitasi Anadolou plitasi bilan to'qnashgan.

Plitalarining shunday ishqalanishi o'tmishtida ham halokatlari zilzilaga sabab bo'lgan. 1822-yil 13-avgustda u Turkiya va Suriyada 7,4 magnitudali zilzilani keltirib chiqqagan.

Shunday qilib, XIX asrdagi bu zilzila mintaqadagi shaharlarga katta zarar yetkazgan edi. Birgina Aleppo shahrida 7000 kishi halok bo'lgan, vayronkor tebranishlar deyarli bir yil davom etgan.

Hozirgi zilziladan keyin ham o'ntab tebranishlar sodir bo'ldi va olimlar bu mintaqadagi tendensiya avvalgi yirik zilzilaga teng bo'lishini kutishmoqda.

### ZILZILALAR QANDAY O'LCHANADI?

Ular magnituda yoki rixter shkalasi bo'yicha o'lchanadi. Bu o'lchov birligi amerikalik seismolog Charlz Rixter nomiga qo'yilgan.

Ushbu shkalaga ko'ra, odatda sezilmaydigan silkinish 2,5 ballgacha bo'ldi. Ularni faqat maxsus asboblar yordamida aniqlash mumkin.

5 magnitudali silkinishlar sezildi va kichik zarar yetkazishi mumkin.

8 dan yuqorisiga halokatlari hisoblanadi. 2011-yil mart oyida Yaponiya qirqog'larini yaqinida sodir bo'lgan 9 magnitudali zilzila quruqlikda katta vayronagarchilikka olib kelgan va bir qator ulkan sunamilarni keltirib chiqqagan edi.

Eng kuchi 9,5 magnitudali zilzila 1960-yilda Chilida qayd etilgan.

### ZILZILADAN QANDAY OMON QOLISH